
1 MAYDAN QONUNCHILIKDA NIMALAR O'ZGARADI?



1 maydan qonunchilikda nimalar o'zgaradi?

Ayrimlarga shifoxonada bepul ovqat beriladi

Prezidentning tegishli qarori bilan 2023 yil 1 maydan nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashda qator tartiblar o'rnatilmoqda.

Jumladan, tibbiyot muassasalarida davolanayotgan nogironligi bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilish uchun shu muassasada uning otasi yoki onasiga (ularning o'rnini bosuvchi shaxsga) yoxud oilaning bolani bevosita parvarishlayotgan boshqa a'zosiga nogironligi bo'lgan bolaning yonida birga bo'lish uchun sharoit yaratiladi.

Shuningdek, statsionar tibbiyot muassasalarida nogironligi bo'lgan bolani parvarishlayotgan shaxsga mazkur davr uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi hamda bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga g'amxo'rlik qiluvchi shaxslar (ota-onasi va boshqalar) uchun davolash davrida davlat statsionar tibbiyot muassasalarida bepul ovqatlanish yo'lga qo'yiladi.

O'ktamjon Ergashev - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-03 16:11:05